

Date: 3rd April-2026

YANGI ISH O‘RINLARINI TASHKIL ETISHDA TADBIRKORLIKNI
RIVOJLANTIRISHDAN FOYDALANISH YO‘LLARI

Olimova Nodira Xamrakulovna

i.f.n., professor, Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada yangi ish o‘rinlarini tashkil etishda tadbirkorlikni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi. Tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy o‘rish, bandlikni ta‘minlash va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ta‘siri o‘rganiladi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda ularni takomillashtirish yo‘llari asoslab beriladi.

Annotation. This article examines the theoretical and practical aspects of entrepreneurship development in the creation of new jobs. It analyzes the impact of entrepreneurial activity on economic growth, employment, and socio-economic stability. Additionally, the mechanisms for supporting small business and private entrepreneurship, as well as ways to improve them, are substantiated.

Аннотация. В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты развития предпринимательства в процессе создания новых рабочих мест. Анализируется влияние предпринимательской деятельности на экономический рост, занятость населения и социально-экономическую стабильность. Также обоснованы механизмы поддержки малого бизнеса и частного предпринимательства и пути их совершенствования.

Kalit so‘zlar: tadbirkorlik, kichik biznes, bandlik, yangi ish o‘rinlari, iqtisodiy o‘rish, xususiy sektor, innovatsiya

Keywords: entrepreneurship, small business, employment, job creation, economic growth, private sector, innovation

Ключевые слова: предпринимательство, малый бизнес, занятость, новые рабочие места, экономический рост, частный сектор, инновации

Hozirgi globallashuv sharoitida iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishda yangi ish o‘rinlarini yaratish muhim strategik vazifa hisoblanadi. Ushbu jarayonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etib, u iqtisodiy o‘rinishning asosiy drayverlaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari yangi ish o‘rinlarini yaratishda yuqori moslashuvchanlikka ega bo‘lib, hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish, innovatsion faoliyatni kengaytirish va resurslardan samarali foydalanishga xizmat qiladi. Shu bois, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini takomillashtirish orqali bandlikni oshirish masalasi zamonaviy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Yashil tadbirkorlikni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish masalasi hozirgi davrda global va milliy iqtisodiy tizimlarda ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Ekologik barqarorlikni ta‘minlash, past uglerodli iqtisodiyot modeliga



Date: 3rd April-2026

o‘tish hamda yashil moliya instrumentlarini keng joriy etish sharoitida yashil tadbirkorlik bandlikni oshirishning samarali mexanizmlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Ilmiy yondashuvlar shuni ko‘rsatadiki, mazkur sohaning rivojlanishi nafaqat ekologik muammolarni kamaytirishga, balki iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantirish va yangi ish o‘rinlarini yaratishga ham xizmat qiladi. Bunda davlat tomonidan olib borilayotgan tartibga solish siyosati, xususi sektorning faol ishtiroki hamda innovatsion moliyaviy vositalarning keng qo‘llanilishi muhim institutsional omillar sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda 2025-yil “Atrof-muhitni muhofaza qilish va yashil iqtisodiyot yili”, deb e‘lon qilinishiga muvofiq, respublikada qattiq maishiy chiqindilar (MSU) bilan ishlash tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha qat‘iy choralar ko‘rilmogda. O‘zbekistonda har yili 14 million tonnaga yaqin chiqindilar hosil bo‘ladi, bu esa mamlakat uchun jiddiy ekologik muammo hisoblanadi. Yaqin vaqtgacha ushbu hajmning atigi 4-5 foizi qayta ishlanar edi, bu esa atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Chiqindixonalarda hosil bo‘lgan 7 million tonnadan ortiq issiqxona gazlari va 43 ming tonna zaharli oqava suvlar atmosferaga chiqarilib, tuproqqa kirib, aholi salomatligi va mamlakat ekotizimiga xavf tug‘dirdi [2]. Sanitariya-tozalash xizmatlari uchun to‘lovning 5 foizi miqdoridagi majburiy ajratmalar bekor qilindi, bu esa xususi sektor uchun investitsiyalarni yanada jozibador qiladi [2].

2025-yilning “Yashil iqtisodiyot” yili sifatida e‘lon qilinishi doirasida sanitariya-gigiyena xizmatlari samaradorligini oshirishga qaratilgan kompleks monitoring tizimini joriy etish nazarda tutilmogda. Xususan, maxsus texnikalarning GPS orqali nazorat qilinishi hamda chiqindilarni yig‘ish punktlarida videokuzatuv vositalarini o‘rnatish orqali xizmatlar sifati va shaffofligini ta‘minlash ko‘zda tutilgan.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda chiqindilarni boshqarish va qayta ishlash sohasini rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatli strategik maqsadlar belgilangan bo‘lib, ularga ko‘ra 2030-yilga qadar umumiy chiqindilarning kamida 65 foizini qayta ishlashga erishish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, aholini qattiq maishiy chiqindilarni yig‘ish va olib chiqish xizmatlari bilan to‘liq, ya‘ni 100 foiz qamrab olish, jumladan, qishloq hududlarida ham ushbu xizmatlarni kengaytirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmogda. Shuningdek, chiqindilarni qayta ishlash obyektlarida muqobil energiya manbalaridan foydalanish ulushini 2030-yilga borib 40 foizga yetkazish orqali ekologik barqarorlikni ta‘minlash va resurslardan samarali foydalanish maqsad qilinmogda [2].

O‘zbekistonda tabiiy resurslarni samarali va barqaror asosda ishlatish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmogda. Bu jarayonda yashil tadbirkorlikni rivojlantirish nafaqat atrof-muhitga salbiy ta‘sirni kamaytiradi, balki aholi uchun yashil ish o‘rinlarini yaratishda muhim omil hisoblanadi. 2023-yilda issiqxona gazlari chiqindilarining umumiy hajmi 1115 ming tonna CO₂-ekv. ni tashkil etdi va 1085 ming tonna CO₂-ekv.ga nisbatan 2,6% ga o‘sdi. Mazkur holat 2022-yilda NKMKda yangi ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishi hamda qimmatbaho metallar ishlab chiqarish hajmining oshishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, kombinat tarkibidagi barcha obyektlarda to‘g‘ridan-to‘g‘ri issiqxona gazlari chiqindilarini monitoring qilish va ularning miqdoriy bahosini aniqlash



Date: 3rd April-2026

tizimi joriy etilgan bo‘lib, bu jarayon ekologik nazoratni kuchaytirish hamda ishlab chiqarish faoliyatining atrof-muhitga ta‘sirini ilmiy asosda baholash imkonini beradi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2023-yilda NKMK da 43259 tonna CO₂-ekv. issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga erishildi, bu 2022-yilda erishilgan 35 929 tonna CO₂-ekv. natijasidan 20 foizga ko‘p - issiqxona gazlari chiqindilarining kamayishi energiya tejash ma‘lumotlari asosida hisoblanadi. Kompaniya uning muvaffaqiyati jamoaviy ish samaradorligi va har bir xodimning kasbiy mahoratiga bevosita bog‘liqligini anglagan holda yondashadi. Inson resurslari bo‘limi mehnat munosabatlarini tartibga soluvchi asosiy organ hisoblanadi hamda qulay ish muhitini yaratish va kasbiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlashda strategik rol o‘ynaydi.

“NKMK” davlat korxonasi institutsional jihatdan transformatsiya qilish jarayonida 2021–2022-yillarda uning tarkibiy bo‘linmalarining bir qismi “Navoiyuran” davlat korxonasi hamda “Jamg‘arma” davlat muassasasi tasarrufiga o‘tkazildi. Mazkur tarkibiy o‘zgarishlar 2021–2023-yillar davomida kadrlar soni, ularning tarkibi hamda kadrlar almashinuvi ko‘rsatkichlariga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga, kompaniyaning faoliyati to‘rtta asosiy hududiy mintaqani qamrab olib, ushbu hududlarda tog‘-ko‘n sanoatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan kompleks ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada, NKMK mamlakat iqtisodiy o‘sishini ta‘minlash, sanoat salohiyatini mustahkamlash hamda barqaror rivojlanish jarayonlariga muhim hissa qo‘shayotgan yirik xo‘jalik yurituvchi subyekt sifatida namoyon bo‘lmoqda. 2023-yilda kompaniyada jami ishlovchilarning 86,8% ini erkaklar tashkil etdi, bu raqam 2021 yilda 86,3% ni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich Navoiy (82,5%), Uchquduq (81,6%) tumanlarida jami o‘rtachaga nisbatan kam, Zarafshon (87,8%), Nurobod (92,6%) tumanlarida esa yuqori bo‘ldi. Aksariyat ishlovchilar (98,8%) muddatsiz asosda ishlamoqdalar.

Shunday qilib, 2023-yil uchun aylanma tezligi - 2,9%, ayollar orasida bu ko‘rsatkich 0,3%, erkaklar orasida esa 2,6% ni tashkil etdi, yoshi bo‘yicha 30-50 yosh oralig‘idagi aholi orasida yuqori. Ish haqini hisoblashda nafaqa va bonuslardan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qaroriga muvofiq, mintaqaviy (hududiy) koeffitsiyentlar hisobga olinadi. Ushbu koeffitsiyent bo‘linish joyiga qarab, 1,2 dan 1,6 gacha o‘zgarib turadi. NKMK xodimlarining ish haqiga hududiy (hududiy) koeffitsiyentlarni hisoblashning eng yuqori miqdori O‘zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam ish haqining 2,11 baravarini tashkil etadi.

Ta‘limga investitsiyalar bo‘yicha 2023-yilda kompaniya jami 1487498 ming AQSh dollari miqdorida mablag‘ ajratdi, bu 2022-yilga nisbatan (1077044 ming AQSh dollari) 37 foizga ko‘p. Jamoa shartnomasidan tashqari, ish joyida xavfsizlikni ta‘minlash va mehnatni muhofaza qilishning umumiy madaniyatini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2023-yilda “NKMK” OAJ Yagona aksiyadori qaroriga muvofiq korxonada mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimi institutsional jihatdan takomillashtirildi. Xususan, “Mehnatni muhofaza qilish bo‘yicha direktor” lavozimi kengaytirilgan funksional vakolatlariga ega bo‘lgan “Mehnatni muhofaza qilish, sanoat xavfsizligi va atrof-muhitni muhofaza qilish (ESG) direktori” lavozimi bilan almashtirildi.



Date: 3rd April-2026

Bundan tashqari, mavjud Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik boshqarmasi qayta tashkil etilib, NKMKning Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik boshqarmasi maqomiga o'tkazildi. Mazkur o'zgarishlar korxonada ishlab chiqarish xavfsizligini kompleks boshqarish, ekologik mas'uliyatni kuchaytirish hamda xalqaro ESG standartlariga moslashish jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qiladi.

NKMK o'z hududida va undan tashqarida yashovchilarga g'amxo'rlik qiladi, mamlakat ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shadi. Mahalliy hamjamiyatlarning o'zaro ta'siri va rivojlanishining asosiy yo'nalishlari quyidagilardir: chekka hududlarda ish o'rinlarini ochish, O'zbekiston aholisining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash, madaniyat va sportni, tibbiyotni rivojlantirish. O'tgan yillarda bir qator sanoat obyektlari ishga tushirilib, qurilish ishlari olib borilayotgan hududlarda mahalliy aholini infratuzilma va ish joylari bilan ta'minladi. Bunday yirik ijtimoiy infratuzilma loyihalarini amalga oshirish viloyatda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi va shu orqali multiplikativ samara keltiradi. 1445 ta yangi ish o'rni yaratilib, uning 1354 tasi investitsiya dasturi doirasida, 91 tasi tarmoqni rivojlantirish dasturiga muvofiq, yaratildi. Investitsiya dasturi doirasida yaratilgan ish o'rinlarining 88% ga yaqini chuqurquduq konida zahiralarni o'zlashtirish hisobiga yaratilgan bo'lsa, 93,4% tarmoqni rivojlantirish dasturiga muvofiq, yaratilgan ish o'rinlari Markaziy kon boshqarmasi GMZ-5 dagi innovatsion loyihaga to'g'ri keldi

Joriy yil davomida egallab turgan lavozimida xizmat qilish muddati uchun "NKMK jamg'armasi" DM tasarrufidagi xizmat ko'rsatish binolaridan 11 ta xonadon ajratiladi. Shundan: Navoiy shahrida 6 ta, Zarafshon shahrida 4 ta, Uchquduq tumanida 1 ta. Shu bilan birga, Jamg'arma tasarrufidagi yotoqxonalarda ishchi va xizmatchilarni uy-joy bilan ta'minlash uchun xonalar ajratiladi, ulardan: Navoiyda 81 ta, 56 ta - "Zarafshon"da, Uchquduq tumanida 46 ta.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati mamlakat sanoatining strategik ahamiyatga ega yetakchi subyektlaridan biri sifatida raqamli iqtisodiyot tamoyillarini ishlab chiqarish jarayonlariga izchil joriy etmoqda. Mazkur transformatsiya jarayoni korxonada faoliyatining samaradorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish hamda boshqaruv tizimini optimallashtirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, raqamlashtirish jarayoni mehnat bozorida sifat jihatdan yangi ish o'rinlarining shakllanishiga ham zamin yaratmoqda. Xususan, axborot texnologiyalari, avtomatlashtirish, ma'lumotlar tahlili va sanoat raqamli tizimlarini boshqarish bilan bog'liq mutaxassisliklarga bo'lgan talab ortib, bu esa inson kapitalini rivojlantirish va innovatsion iqtisodiyotga o'tish jarayonlarini jadallashtirmoqda:

- Konlarni geoaxborot tizimlari (GIS) va dronlar yordamida o'rganish amaliyotga joriy etilmoqda. Bu jarayon geoaxborot mutaxassislari, dron operatorlari, raqamli geologlar uchun yangi ish o'rinlari yaratmoqda.

- NKMKda ishlab chiqarish jarayonlarini onlayn kuzatish va sensorlar orqali avtomatik nazorat tizimlari joriy etilmoqda. Shu asosda IT-injenerlar, dasturchilar, avtomatlashtirish bo'yicha muhandislarga talab ortib bormoqda.



Date: 3rd April-2026

- Yirik sanoat korxonasi sifatida NKMKda kiberxavfsizlik va raqamli ma'lumotlarni himoya qilish dolzarb. Bu esa kiberxavfsizlik mutaxassislari, server administratorlari, ma'lumotlar analitiklari uchun ish o'rinlari yaratishga xizmat qiladi.

- Korxonada buxgalteriya, moliya va resurslar harakatini raqamli dasturlar orqali yuritish kengaymoqda. Bu jarayonda ERP dasturchilari, raqamli moliyachi va analitiklar ish o'rinlari paydo bo'lmoqda.

- NKMKda raqamli iqtisodiyot sohasidagi islohotlar ishchilarning malakasini oshirishni talab qilmoqda. Shu bois, IT-bilimli muhandislar, raqamli ta'lim trenerlari, o'quv markazi instruktorlari kabi ish o'rinlari yaratilmoqda.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonlari ishlab chiqarish jarayonini zamonaviylashtirib, sanoat samaradorligini oshirmoqda. Shu bilan birga, u yerda IT-injenerlar, raqamli geologlar, dron operatorlari, kiberxavfsizlik mutaxassislari kabi yangi va yuqori malakali raqamli ish o'rinlari shakllanmoqda. 2024-yilning boshlarida NKMK o'z mutaxassislari tomonidan quyidagi tizimlarni ishlab chiqdi va joriy qildi: transport boshqaruvi, ishlab chiqarish, moliya, kadrlar, korxonaning moddiy-texnik ta'minoti, energiya resurslari, buxgalteriya hisobi va boshqalar.

Korxonada zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini joriy etish doirasida korxonalar resurslarini rejalashtirishga yo'naltirilgan integratsiyalashgan ERP (Enterprise Resource Planning) axborot tizimi tatbiq etildi. Mazkur tizim asosiy biznes jarayonlarini kompleks avtomatlashtirish, korxonalar faoliyatining muhim iqtisodiy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini real vaqt rejimida boshqarish hamda xizmatlar va tarkibiy bo'linmalar o'rtasida samarali axborot almashinuvini ta'minlash imkonini yaratadi.

Shuningdek, ERP tizimi ishlab chiqarish bo'linmalari faoliyatini muvofiqlashtirish, resurslardan oqilona foydalanishni optimallashtirish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi. Tizim yordamida korxonalar va uning alohida bo'linmalari faoliyati samaradorligini kompleks baholash, shuningdek, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS) talablariga muvofiq moliyaviy hisobotlarni shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Natijada, mazkur axborot tizimi korxonalar raqamli transformatsiyasini jadallashtirish, shaffoflik darajasini oshirish va raqobatbardoshligini mustahkamlashning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Ishlab chiqarish maydonlarida sun'iy intellekt (AI) va mashinani o'rganish (ML) texnologiyalari elementlariga ega jarayonlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlari (APCS) joriy etildi. Ushbu tizimlar ishlab chiqarish jarayonlarini real vaqtda monitoring qilish, parametrlarni avtomatik tarzda sozlash va optimal ishlash rejimlarini ta'minlash imkonini beradi. APCSni joriy etish ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga, texnologik jarayonlarni barqarorlashtirishga va resurslardan oqilona foydalanishga yordam berdi. Shu bilan birga, tizim raqamli ishlab chiqarish unsurlarini integratsiya qilishni soddalashtirdi, shu jumladan sensorlar, IoT qurilmalari va katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish vositalarini qo'llash orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishga imkon yaratdi. Natijada, APCS ishlab chiqarish sifatini yaxshilash, energiya



Date: 3rd April-2026

samaradorligini oshirish, jarayonlarda inson omilini kamaytirish va raqamli transformatsiya jarayonini ilgari surishda strategik vosita sifatida namoyon bo'lmog'da.

Boston Consulting Group bilan hamkorlikda Navoiy kon-metallurgiya kombinati (NKMK)ning 2030-yilgacha raqamli transformatsiyasi strategiyasi hamda Strategiyani amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritasi ishlab chiqildi. Ushbu hujjatlar doirasida hozirda Kompaniyada raqamli yechimlarni rivojlantirish ishlari, jumladan sun'iy intellekt, mashinani o'rganish va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini tatbiq etish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, NKMKdagi yashil tadbirkorlik tashabbuslari sanoat ishlab chiqarish jarayonlarida ekologik muvozanatni saqlash bilan bir qatorda, mahalliy aholi uchun barqaror va samarali yashil ish o'rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda. Ushbu tajriba O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasining amaliy ifodasini tashkil etadi, u nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki iqtisodiy o'sish va ish o'rinlarini yaratishda innovatsion yondashuvlarning samaradorligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya va yashil tadbirkorlik integratsiyasi korxonada darajasida resurslardan oqilona foydalanish, energiya samaradorligini oshirish va uglerod chiqindilarini kamaytirish orqali barqaror ishlab chiqarish tizimlarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, ushbu integratsiya mahalliy va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini kengaytiradi hamda korxonada strategik raqobatbardoshligini oshirish orqali barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga xizmat qiladi. Shu tariqa, raqamli va yashil transformatsiya kombinatsiyasi sanoat tarmoqlarida ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarning uyg'unligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. Yaratilgan yangi ish o'rinlarini hisobga olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. 21.12.2022 yildagi 717-son, <https://lex.uz/docs/-6323798>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2024-yilda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligiga ko'maklashish dasturi to'g'risida. 09.01.2024 yildagi PQ-7-son, <https://www.lex.uz/uz/docs/-6752402>
3. Отчет об устойчивом развитии АО «НГМК». Преобразования в действии, Навои - 2024. - С.94
4. <https://vzglyad.uz/ru/post/2025/01/14/proryv-v-upravlenii-othodami/>

